

GLOBALISATION AND THE ROLE OF VARIOUS IDEAS IN TECHNOLOGY

Sitora Otabekova Otabek Qizi

The Republic of Uzbekistan, Surkhondaryo region

The psychology methodist of the department
of the educational system

E-mail: nickisitora@gmail.com

Annotation: This article discusses the role of globalization in the process of theoretical knowledge in technology and the relationship between the acquisition of a new quality of dialogue between civilizations in this process. In particular, the many positive aspects of the various integration processes that occur as a result of globalization are listed one by one. In the scientific literature on politics, such a process is interpreted as a “globalization phenomenon”.

Keywords: Theory, technology, integrated knowledge, the phenomenon of globalization.

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali globallashuvning nazariy bilimlarni jarayonida texnologiyadagi oʻziga xos ahamiyati hamda ushbu jarayonda sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi oʻzaro munosabati borasidagi fikrlari muhokama qilingan. Jumladan, globallashuv natijasida yuzaga kelayotgan turli integratsiya jarayonlarining talay ijobiy imkoniyatlari birma-bir sanab oʻtiladi. Siyosatga doir ilmiy adabiyotlarida bunday jarayon “globallashuv fenomeni” sifatida talqin qilinadi.

Kalit soʻzlar: Nazariya, texnologiya, integratsiya bilimlar, globallashuv fenomeni.

XX asr oxiri - XXI asr boshlariga kelib integratsiya jarayonlari yanada avj oldi, zamonaviy axborot texnologiyalarining bemisl rivoji va yagona jahon axborotmaydonining shakllanishi bu jarayonning yangi bosqichga koʻtarilishiga, Prezidentning yangi kitobida topib aytilganidek, “**sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi**”ga olib keldi. Siyosatga doir ilmiy adabiyotlarida bunday jarayon “globallashuv fenomeni” deb nomlanmoqda. “**Yuksak maʼnaviyat – engilmas kuch**” kitobida bu hodisa oddiy qilib “hayot surʼatlarining beqiyos darajada tezlashuvi” deb tushuntiriladi.

Bashariyat taraqqiyotidagi bunday oʻzgarishlarni uzil-kesil “yaxshi” yoki “yomon” deb, salbiy yoki ijobiy hodisa sifatida baholab boʻlmaydi. Kitobdayozilganidek, “har qanday taraqqiyot mahsulidan ikki xil maqsadda – ezgulik vayovuzlik yoʻlida foydalanish Prezident kitobida Maʼnaviy maʼrifiy targʻibot va Globallashuv natijasida yuzaga kelayotgan turli integratsiya jarayonlarining talay ijobiy imkoniyatlari birma-bir sanab oʻtiladi. Ularni umumlashtirib aytiladigan boʻlsa, birinchi navbatdaturli sohalarda (jumladan, iqtisod, siyosat, madaniyatsohalarida) “davlatlar va xalqlar oʻrtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi”ga xizmat qilishi mumkin, va darhaqiqat, bunday hamkorlik munosabatlari kundan-kunga kengayib va rangbaranglashib borayotganini oʻzkoʻzimiz bilan koʻrib turibmiz.

Shu bilan birga dunyoda barcha odamlar ham ezgu niyatlar bilan ish olibboradi, deyish qiyin. Baʼzilar uchun bu hayotda vujudga kelgan har bir yangiliklarning oʻz gʻarazli maqsadlariga qulay bir vosita xizmatini bajarishi kerak. Jumladan, jahonda yagona axborot maydonining vujudga kelishi ham bunday buzgʻunchi kuchlar uchun “ayni muddao” boʻldi. Ular zudlik bilan bu qudratli vositani ham oʻz qabih niyatlari yoʻlida ishga solish harakatiga tushdilar. Vaziyatning murakkabligi shundaki, bunday yovuz niyatli kuchlarning Vatani ham, millati ham, dinu imoni ham yoʻq. Ular goh “islomiy” qiyofada, goh “erkinlik va demokratiyani olgʻa siljitish” niqobi ostida harakat qilishlari mumkin.

XXI asr insoniyat tarixiga sivilizatsiyalararo mulokot asri, texnika texnologiya va axborot kommunikatsiyalar tizimi misli ko'rinmagan darajada takomillashib boruvchi asr sifatida kirib keldi. Ayni paytda dunyodagi hodisa va jarayonlarni globallashuv tendensiyasi, mamlakatlar, xalqlar o'rtasidagi sivilizatsiyalararo o'zaro ta'sirni yanada kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Hozirgi vaqtda insoniyat tarixini sivilizatsiyaviy jarayonlar, ularning turli ko'rinishlari va bosqichlari sifatida qarash ilmda etakchi o'rinni egallaydi.

Birinchidan, uning fan tarixida 250 yildan beri davom etib kelayotgan jiddiy an'analari mavjud; **Ikkinchidan**, davrimizning barcha murakkabliklarini asosiy jihatlariga ko'ra sivilizatsiyaviylik yondashuv bilan xiyla keng tushuntirish mumkin. Uchinchi, tafakkurimizga, dunyoqarashimizga yillar davomida singdirilgan taraqqiyotni farmatsion bosqichdan iborat ekanligi haqidagi markscha-lenincha dogmaning ijtimoiy-gnoseologik jihatdan asossizligini ochib berish uchun ham taraqqiyot jarayoniga sivilizatsiyali yondashuv muhim o'rin tutadi. Shuni alohida qayd etmoqchimizki biz sivilizatsiya tarixiga muxtasar to'xtalishni emas, balki, yoshlar ma'naviyatini shaqllanishida Ma'naviy marifiy targ'ibot va globallashuv jarayoni bilan bog'liq holda sivilizatsiyalararo aloqani ta'sirini tahlil qilishni maqsad qilib qo'yganmiz.

«**Sivilizatsiya**» atamasi lotincha «**sivilis**» so'zidan olingan bo'lib, shahar, shahar jamoasi, fuqaro, davlat, fuqaroviylik, davlatchilikka oid juda ko'p ma'nolarni bildiradi. U yoki bu mamlakat yoxud millat muayyan bir davrda o'zining sivilizatsiyasiga (madaniyatiga) yoki uning mavjud xillaridan biriga mansubligi, yoki bo'lmasa yaqinligi bilan xarakterlanadi. Hozirgi zamonning taniqli mutafakkiri, amerikalik **S.Xantington** «**Sivilizatsiyalarning to'qnashuvi?**» - degan asarida shunday ko'rsatadi: «Sivilizatsiyani kishilar umumiylikning eng keng darajasi, madaniy birlikning eng yuqori makomi tarzida ta'riflaymiz. Sivilizatsiya ob'ektiv tartibda til, tarix, din, urf-odatlar, institutlar hamda kishilar o'z-o'zini anglashning umumiy belgilari mavjudligi bilan xarakterlanadi. O'z-o'zini anglashning turli darajalari bor. Demak, insoniyat tamadunidagi har qanday o'zgarish, yangilanishlar insoniy munosabatlar tizimida kechadi. Bu o'zgarishlar hoh ijobiy, hoh salbiy bo'lsin, eng avvalo kishilar, millatlar, xalqlar aro muloqot tizimida shakllanadi.

Ma'naviy ma'rifiy targ'ibot ishlari xaqiqatda insonning nafaqat moddiy hayot tarziga, shu bilan birga ma'naviyati, ruhiy olamiga ham sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Bu noxush g'ayriinsoniy holatlar muayyan kuchlarning global tarmoqning axborotlarni sifatli va tez uzatish hamda tarqatish bo'yicha imkoniyatlardan foydalanish orqali jamoatchilik fikrini to'g'ri yo'ldan burish, o'zlari targ'ib etayotgan nopok g'oya va manfaatlar tomon yo'naltirish uchun ularga axborot etkazish borasida olib borayotgan harakatlari bilan bog'liqdir. So'zsiz, bunday ta'sirga internet auditoriyasining eng faol, eng ko'p qismi tafakkuri etilib, dunyoqarashi puxta shakllanib ulgurmagani yoshlar beriluvchidir.

Ta'assufki, ana shunday jiddiy muammoni mukammal va tizimli o'rganishga etarli e'tibor berilmayapti. Globallashuvning milliy ma'naviyatimiz, an'ana va marosimlarimiz, yoshlarimiz tarbiyasiga o'tkazayotgan ta'sirini o'rganishga esa hali kirishilganicha yo'q. Bu sohadagi hulosalar «Seriallar yoshlarimiz tarbiyasiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda», «Uyatsiz epizodlarni televideniya ko'rsatmaslik kerak», degan umumiy gapdan nariga o'tmayapti. G'arb mamlakatlari televideniyesigina emas, atrofimizdagi ba'zi mamlakatlar televideniyesida ham ko'rsatilayotgan yoki G'arbdan translyasiya qilinayotgan dasturlarga solishtirsak, televideniemizdagi o'ta behayo deb atalayotgan ko'rsatuvlar juda beozor va risoladagi ko'rinadi. Bu holat o'ta behayo deyilayotgan ko'rsatuvlarning yangi to'lqinini kutishimiz keraqligini anglatadi. Ma'naviy globallashuv xorijdan faqatgina o'shanday behayo tomoshalarning kirib kelishini bildiradimi? Bu savolga javob topishimiz uchun ma'naviyat sohasidagi globallashuvning tarixiga va mohiyatiga nazar tashlashimiz lozim.

Ma'naviy jihatdan G'arbdan qolishmaydigan Sharq nima uchun ko'proq ta'sir o'tkaziladigan mintaqaga aylanib qoldi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy ta'sir o'tkazish uchun iqtisodiy jihatdan boy bo'lish kerak. Biroq, ma'naviy ta'sir o'tkazish uchun ma'naviy boylikning o'zi kifoya qilmas ekan. Masalan, dunyoda eng qadimgi tamaddunlar o'lkasi bo'lgan Iroq keyingi yarim asr davomida, globallashuv jarayonida uzoq

mamlakatlar u yoqda tursin, yon atrofdagi mamlakatlarga ham sezilarli ta'sir o'tkaza olmadi. Ma'naviy globallashuv jarayonlarini o'rganar ekanmiz, ma'naviy ta'sir o'tkazishning muhim sharti ma'naviy faollik degan xulosaga keldik.

Mamlakat boy-madaniy tarixga ega bo'lsa-yu, hozirgi avlod o'sha ma'naviy boylik va an'analarni o'zlashtirmagan bo'lsa, u mamlakat ma'naviy ta'sir sub'ekti bo'la olmaydi va ob'ektligicha qoladi.

Demak, globallashuv jarayonida sivilizatsiyalararo muloqot o'sib borayotgan bir sharoitda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda zamonaviylik bilan tarixiylikning o'zaro uyg'unligini ta'minlash ya'ni texnika, texnologiya, axborot kommunikatsiyalari yutuqlari asosida yoshlar tafakkurini boyitishning ajdodlar ma'naviy merosi ne'matlaridan o'zaro aloqadorlikda foydalanish ko'nikmalarini ularda hosil qilish zarur. Ta'sufki, bugun yoshlarimizning aksariyati globallashuv tufayli Evropa va xorijiy ma'naviy-madaniy oqimlar ta'siriga ko'proq ishtiyoqmand bo'lib, milliy ma'naviyatimizning hayotbaxsh yuksak ahloqiylikka asoslangan tamoyillariga ixlosmandligi sust kechmoqda. Inson qadri, ma'suliyati, ahloqiga bepishandlik ularning ba'zi birlarning kiyinishi, fe'l-atvori, yurish-turishida yaqqol ko'zga tashlanib qolmoqda.

O'zgarishlarga qanchalik qarshilik ko'rsatilmasin, ular bari bir hayotimizga kirib kelaveradi. Ayniqsa, globallashuv jarayonidan o'zining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanuvchi kuchlar bor ekan, bu o'zgarishlardagi salbiy jihatlar ham kuchayib boradi. Binobarin, globallashuv jarayonining asosiy sub'ekti va harakatlantiruvchi kuchlari manfaatlariga xizmat qiladigan bunday sa'iyaharakatlardan ko'zlangan maqsad milliy manfaat va qadriyatlarga tayangan an'anaviy tafakkur tarziga zarba berib, butun dunyoda g'arbona andozalarga asoslangan, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy jihatdan yagona tamaddun hukmronligini o'rnatishidan iborat. Bunday sa'y-harakatlarning hatarli jixati shundaki, uning boshqa tamaddunlar, xalqlar va davlatlar uchun qanday oqibatlar keltirib chiqarishi, masalan, yaqindagina mustaqillikka erishgan mamlakatlarning milliy manfaatlari, an'ana va qadriyatlariga qay tarzda ta'sir etishi mumkinligi global hukmronlikka intilayotgan kuchlarni u qadar tashvishlantirmaydi. Ana shunday global ta'sirlar xalqaro telekommunikatsiyalar, internet tizimi orqali yoshlarimiz ma'naviyatiga salbiy ta'sir etayotganligi bugungi kunda isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Shu kungacha «Erkin axborot oqimi» borasidagi gaplar, deb yozadi «Turkiston» gazetasi muxbiri N.Abdullaeva ko'pchilikni o'ziga maftun etardi. Bu oqim madaniyatimizga, qadriyatlarimizga ma'naviyatimizga qattiq ta'sir o'tkazganini endi ko'rayapmiz. Yaqin kunlargacha bizning telekanallar Lotin

Amerikasi yoki G'arb teleseriallari bilan liq to'la edi. Seriallardagi, reklamadagi har bir kadr teletomoshobinga axborot etkazadi. Uni qanday qabul qilishni esa tomoshabinga buyura olmaysiz. Yaqinda Rossiya kanallarining birida marokashliklar hayoti bilan bog'liq serial berilgan edi, serial qaxramoni Jadi kabi peshonadan chandib ro'mol o'rash va katta zirak takish moda bo'ldi. O'zingiz o'ylang 5 yil oldin kim o'ylagandi, o'zbek kizlari qornini ochib yuradi deb?

Internetdan o'rin olgan ko'p sonli pornografik saytlar oldida esa bu axborot hali holva!. Globallashuv jarayonida milliy an'ana va marosimlarda, kiyinish, xulq-atvorda yuz borayotgan o'zgarishlarni baholash murakkab jarayon. Berilayotgan baholarning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini vaqt ko'rsatadi. Ushbu hodisani milliy ma'naviyatimiz, yoshlarimiz dunyoqarashi, madaniyatiga ma'naviy-ruhiy olamiga tahdid solmasligi uchun ana shu ma'naviyatimiz negizi bo'lgan tayanch qadriyatlarni aniqlab olishimiz va ularni faqat muhofaza qilish emas, boyitish, rivojlantirish to'g'risida qayg'urishimiz kerak.

O'zbekistonning madaniy va ma'naviy merosi, o'zbek tili va adabiyotining tarixiy rivojlanishi tadqiq etilmoqda. XX asrda dunyoda g'oyaviy qarama-qarshiliklar keskin va murakkab tusolgan davr bo'ldi. XX asr so'ngida ikki qutbli dunyoning barham topishi, nisbiy muvozanatning buzilishi natijasida jahondagi mafkuraviy manzaralar tubdano'zgardi. Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, «XX asr oxirida dunyoda jo'g'rofiy-siyosiy ahamiyati va ko'lami jihatidan noyob o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlar betakror. Ular nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda vujudga kelgan qarashlar va ularning mexanizmlarini chuqur o'ylab ko'rishni, balki ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. «Sovuq urush» davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p qoidalar, tamoyillar va g'oyalarni tubdan

qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda. Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog'liq tizim bo'lib bormoqda, unda o'zi - o'zidan qanoatlanishga va mahdudlikka o'rin yo'q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirganda, xalqaro tuzilmalar bilan o'zaro aloqalarda va ularning faoliyatida ishtirok etganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni zarur qilib qo'ymoqda».

Insoniyat tarixi – XXI asrga qadam qo'ydi. XX asr tarix bisotidan o'rin oldi. Mantiqan insoniyat o'tmishdan tegishli saboqlar chiqarishi va XXI asrda tarix varaqlariga xijolatlik bilan bitiladigan voqea-hodisalarning sodir bo'lishiga yo'l qo'ymasligi kerak edi. Qashshoqlik, ekologik muammolar, zaxiralar taqchiligi, ommaviy kasalliklar, diniy aqidaparastlik va terrorizm XX asrdan XXI asrga meros bo'lib o'tdi. Ustiga-ustak, ayrim kuchlarning urinishlari natijasi o'laroq, xavf-xatarlar ro'yxati yangilari hisobiga yanada kengaydi. Demografik inqiroz, demokratiya eksporti, ma'naviy qashshoqlashuv, axborot urushlari, g'arbona turmush tarzini tiqishtirish kabi xavf-xatarlar shundoq ham bezovta dunyoning tashvishlarini ko'paytirdi. Odamzodning mavjud illatlarga qarshi kurashi qaysidir jihatdan afsonalarda tasvirlanadigan ko'p boshli ajdar bilan olishuvni eslatadi. Ajdarning bitta boshi tanasidan judo qilinishi zahoti, shu joydan ikki-usta bosh o'sib chiqishi bu mahluq bilan kurashish naqadar mashaqqatli ekanini ko'rsatadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008, 111-бет.
2. Имомназаров М., Лафасов М. Маънавият асослари (Олий ўқув юртлари учун ўқув қўлланма). – Т., 2008, 220-221-бетлар.
3. Жўраев Н. Азизов.Ш. “Ижтимоий асослари”. Т.; «Marifat Madadkor», 2003, 128-бет.
4. Шамсиева И. “Ёш авлод маънавий ривожига интернетнинг таъсири ва ахборот психологик хавфсизлик муоммоси”. “Ижтимоий фикр-инсон ҳуқуқлари”журнали №1,2007,172-бет.
5. Бекматов.А.“Глобаллашув, миллий анъаналар ва ёшлар тарбияси. Ёшларни миллий истиқлол ғояси руҳида тарбиялаш – Ватан тинчлиги ва хавфсизлигини мустаҳкамланиш муҳим омили” мавзусидаги Республикага илмий-амалий анжуман материаллари.- Тошкент-2004 йил, 67-68 бетлар.
6. Умаров Б. “Ғарб тамаддуни: инкироз аломатлари”. “Тафаккур” журнали, 2/2007 йил, 16-бет.
7. Абдуллаева Н. “Интернет «Жиддий ўйинчокми?»”. “Туркистон” газетаси 2006 йил 15 май № 21 (14933).
8. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йулида. Т.: 6. - Т.: «Ўзбекистон», 1998, 240-241 - бетлар.